

**"BACHADON BO'YNI SARATONINING LABORATORIYA
DIAGNOSTIKASI VA UNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARINI
TAKOMILLASHTIRISH"**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

A.B Saidov, O.R.Xamrayeva, Shomansurova G.E

Bachadon bo'yni saratoni — bu bachadon bo'ynida (bachadonning pastki qismi, qin bilan tutashgan qismi) rivojlanadigan xavfli o'sma (yomon sifatli o'sma). U asosan inson papilloma virusi (HPV) infektsiyasi bilan bog'liq bo'lib, virus bachadon bo'yni hujayralarida genetik o'zgarishlarga sabab bo'ladi va ularning nazoratsiz bo'linishiga olib keladi. Bu saraton ayollar orasida keng tarqalgan bo'lib, o'z vaqtida aniqlansa, samarali davolanishi mumkin. Erta bosqichlarda simptomlar sezilmasligi mumkin, ammo keyingi bosqichlarda qon ketishi, jinsiy aloqadan so'ng qon ketishi, og'riq kabi belgilarga olib keladi. Bachadon bo'yni saratoni ayollarda uchraydigan eng keng tarqalgan saraton turlaridan biridir. Asosiy sababchi omil – Inson papilloma virusi (HPV) infektsiyasi. Ayrim turlari aynan saraton rivojlanishiga olib kelishi mumkin. O'z vaqtida aniqlansa va davolansa, davolash imkoniyati yuqori. Risk omillari :HPV infeksiyasi: Bachadon bo'yni saratonining asosiy sababi. Erta yoshda jinsiy hayotni boshlash va ko'p jinsiy sheriklarga ega bo'llish. Chekish va immunitetning zaiflashishi. Irsi omillar ham rol o'ynashi mumkin. Belgilari va simptomlar: Boshlang'ich bosqichda simptomlarsiz kechishi mumkin. Keyingi bosqichlarda qon ketishi, og'riq va boshqa o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Pap-test yordamida bachadon bo'yni hujayralarida o'zgarishlarni aniqlash. HPV testi yordamida xavfli infeksiyalar mavjudligini tekshirish. Biopsiya va kolposkopiya. Profilaktika maqsadida HPV vaktsinasiyasi: Yosh qizlarni va ayollarni vaktsinatsiyalash yuqori samaradorlikka ega. Muntazam skrining dasturlarida qatnashish, Pap-test va HPV testlarini o'tkazish. Sog'lom turmush tarzini saqlash, chekishni tashlash. Davolash usullari. Jarrohlik amaliyoti: Erta bosqichlarda hujayralarni olib tashlash. Radioterapiya va kimyoterapiya. Immunoterapiya: immunitetni oshiruvchi dori vositalari bilan davolash.

Xulosa. Bachadon bo'yni saratoni o'z vaqtida aniqlansa va to'g'ri davolansa, oldini olish va davolash imkoniyati yuqori. Ayollar orasida bu haqda xabardorlikni oshirish va muntazam tekshiruvlardan o'tish zarur.

FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Onkologiya asoslari mualliflar: DeVita V.T., Hellman S., Rosenberg S.A.
- 2.Cancer: Principles & Practice of Oncology mualliflar: Vincent T. DeVita, Theodore S. Lawrence, Steven A. Rosenberg.
- 3.Bachadon bo'yni saratoni bo'yicha ilmiy maqolalar va tadqiqotlar. JSTOR, PubMed, ScienceDirect kabi ilmiy maqolalar bazalari orqali bachadon bo'yni saratoni haqida so'nggi tadqiqot maqolalarini topish mumkin.

